

"O'zkimyosanoat" Ajda China Export & Credit Insurance korporatsiyasi (SINOSURE) hamda CC7 Industriyes kompaniyasi bilan uchrashuv bo'lib o'tdi.

// 17 August 2023 yil

<https://pda.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/china-export-cc7>





Unda "O'zkimyosanoat" AJ hamda "China National Chemical Engineering & Construction Corporation Seven" kompaniyalari ishtirokida qo'shma loyihalarni amalga oshirish, Xitoy moliya institutlaridan investitsiyalar jalb qilish, shuningdek, "China Export & Credit Insurance" korporatsiyasi tomonidan taqdim etiladigan eksport-kredit sug'urta xizmatlari kabi masalalari muhokama qilindi.

Shuningdek, uchrashuvda "China Export & Credit Insurance" korporatsiyasi bosh menejeri Li Venvei tovarlar eksportini, shuningdek, eksport kreditlari va investitsiyalarni sug'urtalash orqali Xitoy kompaniyalarining xorijdagi sarmoyalarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha ko'p yillik tajribaga egaligi, qolaversa, hamkorlikni yanada kengaytirish va kimyo sanoatida loyihalarini birgalikda amalga oshirishdan korporatsiya manfaatdor ekanligini bildirdi.

Ma'lumot o'rnida, joriy yilning may oyida bo'lib o'tgan "Markaziy Osiyo - Xitoy" sammiti doirasida "O'zkimyosanoat" AJ va Xitoylik hamkorlar o'rtasida bir qancha loyihalar, jumladan, quyosh elektr stansiyalari qurish, ammiak va karbamid, hamda xlorid-kaliy o'g'itlar ishlab chiqarish loyihalari bo'yicha investitsiyaviy shartnomalar imzolangan.